



The role of children's games in preserving examples of folk art

Obodon ADIZOVA¹

Bukhara State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

10 December 2023

Accepted 25 January 2024

Available online

25 February 2024

Keywords:

folklorist,
folklore,
game,
seasonal games,
children's games,
tradition,
historical,
ethnography,
tradition,
nationality,
value.

ABSTRACT

The article examines the essence, thematic types and culture of children's games in French and Uzbek folk art, their origin, evolution, features and structure. The folklore of both countries emphasizes that the games have gone through rich historical stages of development. The features of children's games, customs, values, traditions and ideas about the role of games in preserving national identity have been studied.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1-pp36-40>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xalq og'zaki ijodi namunalarini saqlashda bolalar o'yinlarining o'rni

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

folklorshunos,
xalq og'zaki ijodi,
o'yin,
mavsumiy o'yinlar bolalar
o'yinlari,
urf-odat,
tarixiy,
etnografiya,
an'ana,
milliylik,
qadriyat.

Maqolada fransuz va o'zbek xalq og'zaki ijodida bolalar o'yinlarining mohiyati, mavzuiy turlari va badiiyati, ularning kelib chiqishi, evolyutsiyasi, xususiyati va tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Folklorshunoslikda o'yinlarning boy tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega ekanligi yoritilgan. Bolalar o'yinlariga xos xususiyatlar, urf-odat, qadriyat, an'ana va milliylikni asrashda o'yinlarning o'rni haqida tushunchalar o'rganilgan.

¹ Associate Professor, French Philology Department, Bukhara State University. E-mail: adizovaobodon@gmail.com

Роль детских игр в сохранении образцов народного творчества

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

фольклорист,
фольклор,
игра,
сезонные игры,
детские игры,
обычай,
историческая,
этнография,
традиция,
народность,
ценность.

В статье рассматривается сущность, тематические виды и культура детских игр во французском и узбекском народном творчестве, их происхождение, эволюция, особенности и структура. В фольклоре обеих стран подчеркивается, что игры прошли через богатые исторические этапы развития. Изучены особенности детских игр, обычаи, ценности, традиции и представления о роли игр в сохранении национальной идентичности.

Dunyo xalqlari tarixini, uning betakror madaniyatini, boy ma'naviy qadriyatlarini aks ettirib kelayotgan xalq og'zaki ijod namunalarini saqlash, ajdodlar yaratgan nomoddiy merosni avaylash, bu yodgorliklarning inson ma'naviy kamolotidagi o'rnini ochib berish hamda uni kelajak avlodga yetkazish folklorshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu o'rinda qadimgi xalqlar bolalarning ko'plab umuminsoniy o'yinlari orqali xalqning milliy an'alarini, ularning ota-bobolari yashagan davrning urf-odatini, milliy qadriyatini, madaniyatini va intellektual tembrini saqlab qolgan. Bu o'yinlar esa xalq og'zaki va yozma yodgorliklarining boy merosi namunalari ekanligidan dalolat beradi.

Xalq o'yinlari, milliy o'yinlar, bolalar o'yinlari yosh avlodni tarbiyalashda "hayot maktabi" vazifasini o'taydi. O'yinlar – turli ifodali vositalar bilan ma'lum qoida yoki oldindan kelishilgan shartlar asosidagi jismoniy musobaqalar, bellashuvlar, tafakkur bahslari va ijrochilik talablaridan vujudga kelgan milliy qadriyat hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida kurash va jismoniy mashqlarning kishi badantarbiyasidagi o'rni, o'yinning shifobaxsh xususiyatlari haqida to'xtalgan. Kaykovus, Umar Hayyom, Abulqosim Firdavsiy, Beruniylar chavgon, nard, shaxmat, tirandozlik, qilichbozlik, chavandozlik, milliy yoshlar o'yinlari xususida yozib qoldirgan. Navoiy asarlarida bayramlar, tantanalar, to'ylar munosabati bilan tashkil etilgan o'yinlar haqida ko'pgina ma'lumotlar bor. Ularda o'yinlarning uyushtirilishi, ijrochilari, o'tkazish qoidalari bayon etilgan. Milliy o'yinlar tarixini o'rganishda Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'utit turk" asarining o'rni beqiyos. Asarda xalq o'yinlarining bir yuz ellikdan ziyod turi tilga olingan. Jumladan "qorang'uni" (qorong'ida qo'rg'on olish), "bandol" (asir olish), "o'tish-o'tish" (davra o'yini), "chavgon" (to'p o'yini), qilichbozlik, nayzadorlik va boshqa o'yinlar haqida ham ma'lumot beriladi. Lug'atda izohi berilgan o'yinlarning bir nechtasi hozirgi kunda ham bolalar uchun qiziqarli mashg'ulot sanaladi. "Alpomish" dostoni xalq o'yinlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Unda kurash, ot poygasi, uloq, nayza sanchish, kamondan o'q otish, qilichbozlik, merganlik kabi o'yinlar negizida mardlik, jangovarlik, oriyat, matonat, ma'naviy va jismoniy komillik kabi fazilatlar o'z ifodasini topgan. Doimiy o'tkaziladigan o'yinlar bilan birga har bir faslga xos o'yinlar ham mavjud. Masalan, bahorda daraxtlar uyg'onib, tollar kurtak chiqarganda—"tol bargak", dala gullari ochilganda gul o'yini, pishiqchilik paytida danak, yong'oq o'yinlari,

arg'imchoq uchishlar sevib o'ynalgan. Kech kuz, qishda yog'ingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh o'yinlar odat tusiga kirgan. Qor yoqqanda "qorxat", "qorbo'ron", yomg'ir yoqqanda "yomg'ir yog'aloq", kuchli shamol esganda "bo'ron-bo'ron", sovuq o'z kuchini ko'rsatganda barcha sandal atrofida yig'ilib "topishmoq top", "tez aytish", "kim aytdi" kabilar o'ynalgan. Kech kuzdan to bahorgacha "uloq-ko'pkari" musobaqalari o'tkazilgan. Bayram kunlari varrak uchirish, halinchak uchish kabi turli o'yinlar o'ynaladi. Dala-yu qirlarda, bog'-u rog'larda xalq sayillari qizigandan qiziydi. Xalq o'yinlari kishiga o'zgacha xushnudlik ulashadi, insonning kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi. U yoshlarning jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlanishida, kuchli, chaqqon, topqir, farosatli, mard insonlar bo'lib kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi. Milliy o'yinlar qadimiy madaniyatning go'zalligini namoyon etuvchi bir ko'zgudir.

Fransuz bolalar milliy o'yinlari haqida gap ketganda o'yinchoq va qo'g'irchoqlarni eslab o'tish joiz deb hisoblaymiz va mavzuni yanada qiziqarliroq holda davom ettiramiz. Chunki bu ma'lumotlar bolalar yarmarkalardan sotib oladigan turli xil qo'g'irchoqlari haqida bo'ladi. Bular bolalar yil bo'yi sevib o'ynaydigan qo'g'irchoqlardir. Qo'g'irchoqlar to'g'ridan-to'g'ri faqat kechqurun bir zulmat paytida bir joydan boshqa joyga ko'chirilishi kerak bo'ladi. Unda cherkovlarning qo'ng'iroqlarini ifodalovchi shovqinlardan xristianlikning cherkovlaridagi qo'ng'iroqlariday qilishlari kerak bo'lgan. Xuddi shunday, qizlarning qo'g'irchoqlari dastlab turli xudolarning vakillari bo'lgan deb hisoblangan. Marokashda qo'g'irchoqlar hali ham Yomg'irni ifodalaydi va qurg'oqchilik paytida ular tantanali ravishda olib ketiladi. Shuning uchun ular ko'chma muqaddas haykalchalar deb o'ylangan. Bu o'rinda deyarli uch-to'rt asr oldin barcha qizlar uchun umumiy o'yinchoq bo'lib hisoblangan qo'g'irchoqlar haqida gap borayapti. Dunyo bo'yicha qo'g'irchoq o'ynash qizchalar uchun onani o'ynash demakdir. Onani o'ynash biologik jihatdan xuddi oldindan mashq qilgandek bo'lgan. Xuddi cho'p (hassa) bilan tasvirlangan ot dunyoning barcha xalqlarida o'g'il bolalarning oldingi mashqi bo'lgani kabi. Hatto Neolit qabrlaridan loydan yasalgan hayvonlar topilgan. Ular o'yinchoqlarni yoki hayvonlarni xudolar deb tasavvur qilgan. Rojdestvoda bolalar bog'chalari uchun yaratilgan hayvonlarni odamlar tasvirlab eslaydi. Bu Marseldagi insonlar uchun aniq misol bo'la oladi. Xuddi shuningdek, kulolchilik ishlari orasida hayvonlar haqida ko'plab ishlarni uchratish mumkin. U yerda hushtak chalayotgan qushlarning qiziq bir qatori bor. Bu ularning juda yaxshi o'yini bo'lib, bunda dastlab hushtak chalayotgan qushlar ma'lum bir marosimlarda ishlatiladigan narsalar bo'lgan. Ba'zilarining ichi bo'sh, ba'zilariga suv solib, tabarruk qush kabi to'ldirib qo'ygan va bulbulning juda qadimiy qo'shig'i kabi o'z xohishiga ko'ra taqlid qilgan. U ko'plab mashhur qo'shiqlarda saqlanib qolgan, ularning zaiflashgan aksadosi Romeo va Julieta uchraydi. Shimoliy Fransiya bolalari tomonidan ko'tarilgan va Belgiyada hanuzgacha "ziyarat bayroqlari" ko'rinishidagi o'yinni eslaydi, unda juda eski ko'rinishga ega bo'lgan kichik bayroqchalar muqaddas bo'lib hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, o'yinchoqlar nafaqat qiziqarli, balki o'zining foydaliligi bilan kerak bo'lgan mavzudir. Ularda har qanday qadimiy va ibtidoiy odat va e'tiqodlarni uyg'otadigan ma'lumotlarni topish mumkin. Bolalar o'yinlarining barchasi milliy va qadimiy bo'lib hisoblanadi. Biz ularni unutmasligimiz kerak. XVII asrga oid qo'g'irchoqlar, pierrotlar, arlekinlar va kolumbinlar, bugungi kunda adabiyotshunoslikda "zoologik roman" deb ataladi, chunki, ko'p o'yinlarning qahramonlari hayvonlar bo'lgan. Shuning uchun Kipling, Pergaud, Kolett ertaklari va La Fonten masallari bolalar uchun juda qiziq bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, ular bolalarning tasavvurlarini o'stiradi va dunyoqarashlarini kengaytiradi hamda ularni hayajonga soladi.

O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarida ham juda ko'p o'ziga xos qoida va mezonlar bor. Jumladan, o'yin boshlash uchun bolalarni chaqirish va to'plash, qura tashlash, o'yinni tamomlash, rag'batlantirish, taqdirlash, jazolash va boshqa o'zgarishlarga duch keladi. Buning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bo'lgan. Ijobiy tomoni harakatli o'yinlar irminologiyasi turli milliy va baynalmilal so'zlar hisobiga boyiydi. Salbiy tomoni, shu xalq yaratgan o'yinlardagi milliylik bo'yog'i o'zgaradi, ohori to'kiladi, ya'ni ko'pgina o'yinlar umumiylik sifatini kasb etadi, bu shu xalq urf-odati, udumlari, madaniyatining tabiiyligiga putur yetkazishi mumkin degan fikr bo'lishi mumkin. Buni xalqning ma'naviyati, qadriyatini yo'qotishdagi ilk qadamlardan biri deb tushunsa ham bo'ladi. To'g'ri, sobiq sho'ro davrida, yetmish yil mobaynida hammamiz ma'lum bir ko'rsatmalar asosida ishladik, endi esa mustaqil mamlakatda juda ko'p va keng imkoniyat va imtiyozlarga boy bir Vatanda yayrab yashamoqdamiz. Shuning uchun hozirgi kunda xalqimizning barcha jabhalardagi madaniy merosini, ma'naviyatini, madaniyatini tiklashimiz va uni rivojlantirishni o'z oldimizga qo'ygan asosiy vazifalarimizdan biri deb qarashimiz kerak. Shuningdek, xalq milliy harakatli o'yinlari, raqslari va sport turlari singari o'zining bitmas – tugalmas bilim va tajriba sarchashmasiga ega. Shu boisdan milliy harakatli o'yinlarni o'rganish, keng jamoatchilik asosida tadqiq etish, ularni bolalarning, o'quvchilarning jismoniy madaniyati jarayoniga tadqiq etish ayni muddaodir.

Milliy harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishning o'ziga xos tomonlari mavjud. Shuning uchun ham o'yinning nozik tomonlarini bilishning ham ahamiyati kattadir. O'yinning bolalarni o'yinga chaqirish va to'plash, o'yinni boshlash uchun qura tashlash, o'yinni tamomlash kabi o'yin mazmunini to'liq ochib beradigan o'ziga xos xususiyatlarini bilmasdan turib sog'lomlashtirish, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni, jismoniy sifatlar(tezkorlik, chidamlilik, kuch, chaqqonlik va boshqalar) ni tarbiyalab bo'lmaydi. Xalqning mehr qoni bilan yaratilgan har bir o'yini, o'yinning umrboqiyli, unga qanday munosabatda bo'lishiga ham bog'liq. Binobarin, o'yin har bir xalqning qalb ohanglari, xayol tashvishlari va quvonchlarni, turmush tarzini, xususiyatlarni belgilaydi. Uni saqlab, e'zozlab, me'yoriga yetkazib o'ynay bilish faqat shu xalq vakillarigagina xosdir. Birorta millat o'zгалar o'yinini, ularchalik zavq-shavq bilan, ko'tarinki ruh bilan o'ynay olmaydi. Sababi, har bir millat o'ziga xos uslubga, xususiyatga ega. Bu esa shu millatga ona tabiat tomonidan berilgan in'omdir. Uni ko'r-ko'rona o'zgartirish mumkin emas, o'zgartirishlarni turmushning o'zi taraqqiyot, rivojlanish, turmush tarzidan kelib chiqib kiritib boradi.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan bu yurtning mingdan ortiq milliy o'yinlari, qo'shiqlari va xirgoyilari mavjuddir. Ular xalqning tarixi, urf-odatlar va an'analaridan so'zlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arnold Van Gennep. Le folklore. Croyances et coutumes populaires françaises. Paris : Librairie Stock, 1924, 16 p. Édition complétée le 3 août, 2009 à Chicoutimi, Ville de Saguenay, Québec
2. Contes nouveaux ou les Fées à la mode Par Madame D, tome premier, Paris, Vve de Th. Girard, 1998
3. Fayzulloyev O. M.O'zbek folkloridagi lingvokulteremalarning inglizcha tarjimada berilishi (Bolalar folklori va ertaklar misolida) Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 7 b.

4. Istamovna, Adizova Obodon. "THE EXCEPTIONAL IN THE WORKS OF VAN GENNEP." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12 (2023): 122-125.

5. Adizova, Obodon Istamovna. "HISTORY AND ETYMOLOGY OF THE FAIRY TALE." Educational Research in Universal Sciences 2.1 SPECIAL (2023): 121-126.

6. Adizova, Obodon Istamovna. "A LOOK AT FOLKLORE." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 88-91.

7. Adizova, O. I. "Reflection of the Creative Personality on The Basis of The Biographical Method In Works Of Art." Indonesian Journal of Innovation Studies 18 (2022).

8. Adizova, Obodon, and Zulfiya Berdiyeva. "Le rôle de la methode biographique dans la critique littéraire française." Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. 2022.

9. Adizova Obodon. "Aziz Qayumovning ilmiy-biografik asarlarida ijodkorning tadqiqotchilik mahorati xususida". (buxdu. uz) 6.2 (2020).

10. Adizova Obodon. "ФРАНЦУЗ БОЛАЛАР ФОЛЬКЛОРИ ТАРИХИ ВА УНИНГ ШАКЛЛАНИШ ОМИЛЛАРИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 35.35 (2023).

11. Adizova Obodon. "АЗИЗ ҚАЮМОВНИНГ НАВОИЙ ДЕВОНЛАРИ ТАДҚИҚИГА БИОГРАФИКЁНДАШУВИ". ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 35.35 (2023).

12. Adizova, Obodon. "ШАРЛЬ ОГЮСТЕН ДЕ СЕНТ-БЁВ—ОСНОВАТЕЛЬ БИОГРАФИЧЕСКОГО МЕТОДА." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 35.35 (2023).

13. Istamovna, Adizova Obodon, and Sadoqat Suvonqulova. "The Essential Function of the Proverb." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.5 (2023): 338-342.

14. Adizova, Obodon. "LA LOCUTION-UN GROUPE DE MOTS QUI JOUE." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 33.33 (2023).

15. Adizova, Obodon. "БИОГРАФИК МЕТОДНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА СЕНТ БЬЁВ ИЖОДИНИНГ ЎРНИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 33.33 (2023).

16. Adizova, Obodon. "THE AUTHOR IN REVEALING THE ESSENCE OF THE BIOGRAPHICAL METHOD THE PLACE OF IDENTITY." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 33.33 (2023).

17. Adizova, Obodon. "About the Way of Life of Zahiriddin Muhammad Babur in His Creative Activity." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 33.33 (2023).

18. Adizova, Obodon. "LES CONTES BIOGRAPHIQUES ET ESTHÉTIQUES." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 32.32 (2023).